



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha ta'lim vazirligi



MENING



ILK IZOHLI

LUG'ATCHAM





**O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha ta'lim vazirligi**

MENING ILK IZOHLI LUG'ATCHAM

**(maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilari
uchun mo'ljallangan rasmi-bezakli izohli lug'atcha)**

Toshkent - 2022

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilari uchun mo'ljallangan rasml-bezakli izohli lug'atchadan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturiga mufoviq oy mavzularida duch keladigan, maktabgacha yoshdagi bolalarning kundalik muloqotida kam ishlatiladigan so'zlar o'rin olgan.

Mazkur lug'atchadan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagoglari, tarbiyalanuvchilari, ota-onalar shuningdek, ushbu soha mutaxassislari foydalanishlari mumkin.

Mualliflar:

N.I.Ergasheva – Toshkent amaliy fanlar universiteti Ma'naviyat ishlari bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.v.b dotsent

N.R.Dushayeva – Maktabgacha ta'lim vazirligi TJSTIPTJEB bosh mutaxassisi

Taqrizchilar:

K.D.Riskulova – Maktabgacha ta'lim vazirining ma'naviy-ma'rifiy ishlar va davlat tilida ish yuritish bo'yicha maslahatchisi

Sh.S.Sharipova – A.I.Gersen nomidagi RDPU Toshkent shahar filiali "Ta'lim sifatini nazorat qilish" bo'limi boshlig'i

M.Rustamova – MTTDMQTMOI Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedra katta o'qituvchisi

Ushbu lug'atcha vazirlikning 2022-yil 1-iyundagi 03-03/2-1441-son xati bilan A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tiliva adabiyoti universitetiga xulosa olish uchun taqdim etilib, universitetning 2022-yil 8-iyundagi 558-son xati bilan yuborilgan takliflar asosida takomillashtirilgan.

Rasml-bezakli izohli lug'atcha Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislari qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ilmiy-uslubiy kengashining 2022 - yil 25 - oktabrdagi 9 - son qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoniga asosan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'zbek tilini qiziqarli tarzda o'rgatish tizimini ishlab chiqish vazifasi belgilangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o'rgatish, ularda nutq, o'qish, va yozish malakalarini rivojlantirish hamda nutqiy munosabatga va muomalaga o'rgatishdir.

Maktabgacha yoshda ona tilini o'rgatish bu – eng avvalo bola hayotining birinchi yilidan boshlab nutqni rivojlantirish, bo'g'inlar va so'zlarni aniq talaffuz qilish, gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, narsalarning nomini to'g'ri aytish va mos fikr bildirishdan iborat.

Mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan "Mening ilk izohli lug'atcham" nomli maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilari uchun mo'ljallangan rasimli-bezakli izohli lug'atchadan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturiga mufoviq oy mavzularida duch keladigan, kundalik muloqotda kam ishlatiladigan so'zlar o'rin olgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan yangi so'zlar ustida ishlash maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining oldiga qo'yiladigan eng muhim vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya yoshi bolalarning voqelikni faol idrok qiladigan va tevarak-atrofdagi hayotga kirishib ketadigan bir davrdirki, bu davrda ularning so'z boyliklari juda tez o'sib boradi.

Pedagog bolalarni tevarak-atrof bilan (narsalar, jonli tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot hodisalari) tanishtirar, ularning bilish faoliyatini yo'lga qo'yar va boshqarar ekan, har bir bolaga uning to'plagan tajribasini tartibga solishda yordamlashadi, unga yangi bilimlar beradi, unda qiziquvchanlik va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini tarbiyalaydi, o'zini qurshab turgan olamni bilishga bo'lgan qiziqishini o'stiradi.

Bola nutqining taraqqiyoti uning atrofidagi odamlar nutqiga, tevarak-atrofdagi narsa-buyumlarni, ijtimoiy hayot hodisalarini kuzatishiga bog'liq bo'ladi.

Yangi so'zlarni o'rganish jarayonida bolalarning nutq tajribasida uchramagan, ko'pincha o'zbekcha turmush tarziga oid bo'lgan narsa va hodisalar haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi (masalan, xontaxta, nimcha, sumalak, navro'z kabi).

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarga yangi so'zlarni o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli tarzda, bir necha samarali usullardan foydalangan holda olib borilsa, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'ZBEKISTON – MENING VATANIM



AKVARIUM baliqlar va suv jonivorlarining yashashi uchun shishadan yasalgan kichik suv havzasi (maxsus idish).

BAYROQ mustaqil davlatlarning o'ziga xosligini ifodalaydigan davlat ramz (belgi)laridan biri.



BINO quruvchilar tomonidan qurib bitirilgan, insonlar uchun xizmat qiladigan joy.



*Bu mening
jonajon bog'cham
binosi-ku!*

DO‘KON insonlar ehtiyoji
uchun kerak bo‘ladigan
narsalar sotiladigan joy.



DO‘ST insonlarning yaxshi-yomon
kunlarida doim birga bo‘lishga
ehtiyoj sezadigan fikrdosh,
maslakdosh insonlar.

FAVVORA suvning chiroyli
otilib chiqishiga mo‘ljallab
qurilgan qurilma.





IJOD yangi asarlar, she'rlar
yozishga undovchi qobiliyat.

INSHOOT quruvchilar tomonidan
qurilishi davom etayotgan bino.

QURMOQ uy qurmoq,
bino qurmoq.



OILA bir ajdod
va avlod vakillari.

OLTIN qimmatli yerosti
boyliqi, undan zeb-u ziynat
buyumlari yasaladi.



*Bizlar uchun bir-biridan
chiroyli zeb-u ziynat
buyumlari shu kabi
oltinlardan qilinadimi?*



SOVG'A insonlar bir-birini
xursand qilishi uchun
beriladigan hadya, tuhfa.

TASAVVUR xayolan ko‘z
oldiga keltirish.



TO‘TIQUSH o‘rgatilsa
so‘zlarni takrorlay oladigan
har xil rangli chiroyli qush.



O‘ZBEKISTON –
mening vatanim!

VATAN inson tug‘ilib
o‘sgan joy.



KUZ BO'YOQLARI

HOSIL daraxt, turli o'simlik, ekinlardan olinadigan don, meva va sabzavotlar.



KUZ yil fasllaridan biri, asosan yig'im-terim fasli.

KULCHA kichik ko'rinishdagi non.





LIKOPCHA oshxona jihozi.
Yegulik solinadigan idish.

MAVSUM fasllarning
xususiyatlarini,
belgilarini bildiradi.



MEVALAR ekin maydonlari
va daraxtda pishib yetiladi.

MUNCHOQLAR turli
bezaklar uchun ishlab
chiqiladigan rang-barang
zeb-u ziynat mahsulotlar.



NOVVOYXONA non
pishiriladigan va sotiladigan
joy.

OMBORXONA uzoq
muddatga narsalarni
saqlash uchun
mo'ljallangan joy.





PAXTA bobo dehqonlar tomonidan katta yerlarda yetishtiradigan oppoq, momiq, yumshoq, chigitli mahsulot.

REZAVOR butasimon o'simlik bo'lib, mevalari asosan mayda va inson salomatligi uchun juda ham foydali hisoblanadi.



RO'MOLCHA shaxsiy gigiyenik vosita, asosan, paxta mahsulotidan ishlab chiqariladi.

SABZAVOT polizda yetishtiriladi, oziq-ovqat va iste'mol uchun ishlatiladi.



TESHIKKULCHA bolalarning sevimli ozuqalaridan biri, non mahsuloti.

TIPRATIKAN tikanli, yuvvosh jonivor.



“TRANSPORT, YO‘L HARAKATI QOIDALARI. HAYOT XAVFSIZLIGI ASOSLARI”



GULXAN asosan insonlar
isinishi uchun
yoqiladigan olov.

HAYDOVCHI transport
boshqaruvchisi.



KAMALAK yomg‘irdan
keyin osmonda hosil
bo‘ladigan katta yarim
oy shaklidagi ranglar jilosi,
tabiat xodisasi.

KASBLAR insonlarning
qiziqishlari asosida
tanlagan ishlari.



KO'PRIK yo'llarni yaqin
qiluvchi qurilma.

LOY suv va tuproq
aralashmasi.





OLOV bu kimyoviy jarayon bo‘lib, yonib turgan alangadir. Olovdan asosan taomlar tayyorlashda va isininish uchun foydalaniladi.

PIYODA yayov yuruvchi, yo‘l harakati ishtirokchisi.



SAVOB insonlarning javobsiz qiladigan yaxshiliklari.

SVETOFOR transport
va piyodalar harakatini
tartibga soluvchi mexanizm.



TEZ YORDAM bemorlarga
tez yordam ko'rsatuvchi
tibbiyot xodimlarini olib
yuradigan mashina.

TRANSPORT insonlarning
uzog'ini yaqin, og'irini yengil
qiladigan texnika.





XALTACHA kichik anjomlar
to'plamini saqlash uchun
qo'llaniladi, matodan tikiladi.

G'ILDIRAK transportlarning
harakatlanishi uchun xizmat qiladi.



CHORRAHA to'rt tomonga
ketadigan yo'lining
kesishgan joyi.

“QISH”

ARCHA o‘rmon va tog‘larda
o‘sadigan to‘rt faslda ham bir
xilda yam-yashil
bo‘lib turadigan daraxt.



HARBIY har bir
mamlakatning
tinchligini saqlovchi,
qo‘riqlovchi kasb egasi.

HAYVONOT BOG‘I
hayvonlarning
yashashi uchun yaratilgan
sun‘iy bog‘.





PIRAMIDA geometrik shakl.

QISH yil fasllaridan
biri boʻlib, sovuq mavsum.




QOR asosan qish
faslida yogʻadigan
yogʻin turi.

POYABZAL oyoq kiyim.



PUFAK bayram
va tadbirlarda bezatish
uchun foydalaniladigan
havo bilan to'ldiriladigan
rezina shar.

RAQAM 0-9 gacha
bo'lgan sonlar.





SANDIQ qimmatli narsa-
buyumlar saqlanadigan
taxtadan yoki temirdan
yasalgan quti, milliy anjom.

XUSHMUOMALALIK odob-axloq
qoidalariga rioya etish.



1-yanvar

YANGI YIL eski yil
tugaganidan keyin
boshlanadigan
navbatdagi yil;.

CHAVANDOZ ot
mingan odam.



CHANA bolalarning qish
faslida muzlagan qor
ustida uchishi uchun
mo'ljallangan moslama.

CHUMCHUQ mamlakatimizda
turg'un yashaydigan,
kulrang va jigarrang tUSDagi
kichik qush.




BOLALAR BOG'CHASI



BUG'LANISH suvning isishi va qaynashi natijasida hosil bo'ladigan parlanish.

BO'YINBOG' erkaklarning rasmiy kiyim turi.



KAFT qo'l qismi.

MOYCHECHAK bahordan
darak beruvchi gul.



MO‘JIZA kutilmaganda
biror voqeaning sodir bo‘lishi.

PO‘STLOG‘ meva,
sabzavot va daraxtlarning
ustki qatlami.





SARKARDA harbiy
askarlarga boshchilik
qiluvchi shaxs.

SIRPANCHIQ qorning
muzlagandagi holati bo‘lib,
bolalarning chana uchishlari
uchun qulay bo‘lgan joy.



QUVONCH biror bir
narsadan behad shod bo‘lish.

TAJRIBA biror bir narsa
ustida o‘rganish olib borish.



UCHMOQ qushlarning qanot
qoqib uchishi, samolyotning
uchishi, velosipedda
uchish, konkida uchish.

XONTAXTA milliy
ovqatlanish stoli.





YOG‘OCH daraxt mahsuloti.

CHEGARA mamlakatlarni o‘zaro ajratib turuvchi joy.



CHODIR vaqtincha insonlarning saqlanishi uchun qalin matodan yasaladigan pana joy.

AJIB DUNYO

BARMOQ tana
a'zosi hisoblanib, qo'l
va oyoqlarning bir qismi.



HASHAMDOR noyob
bezaklar bilan
bezatilgan joy.

KABUTAR beg'ubor
qush bo'lib, "Tinchlik
qushi" deb ham aytiladi.





KAMZUL kiyim ustidan
kiyiladigan ust kiyim.

LAVH qadimda adjodlarimiz
tomonidan ixtiro qilingan,
kitoblarni qo'yib o'qish uchun
mo'ljallangan moslama.




Maktub insonlarning
bir-birlari bilan yozma
tarzda xabar almashishlari.


MUZEY tarixdan, ajdodlardan meros bo‘lib qolgan buyumlar saqlanadigan joy.



MO‘YQALAM bo‘yoqli rasm chizish uchun ishlatiladigan rassomlik asbobi.

NAQSH tasviriy san’atning elementi, bezak.






PATLI QALAM qadimda
ajdodlarimiz tomonidan
yozuv yozish uchun
ishlatilgan parranda pati.

QAHRAMON o‘z yurti,
vatani va millati uchun
jonini ayamaydigan inson.



QAFAS qush
va hayvonlarni saqlash
uchun maxsus joyi.

RASADXONA yulduzlar
harakatini kuzatish uchun
qurilgan joy.



VAYRONA uzoq vaqt
qarovsiz qolgan joy.

SIYOHDON siyoh
saqlanadigan idish.





O'TOV yaylovlarda insonlar sovuq va issiqdan saqlanadigan joy.

G'OR tabiiy tarzda hosil bo'lgan tog'lardagi katta hajmdagi teshik, insonlar qadimda shunday g'orlarda yashab, o'zlarini sovuqdan, issiqdan asrashgan.



CHIPTA transport vositalarida yurish, uchish huquqini beruvch bir martalik to'lov qog'ozi.

GO‘ZAL BAHOR

BAHOR ko‘klam fasli.



BOL ARILARI insonlarga foyda keltiradigan hasharot bo‘lib, uning asosiy vazifasi asal yig‘ishdan iborat.

BOG‘BON gullar va daraxtlarga ishlov beruvchi kasb egasi.





BUG'DOY, BUG'DOY UNDIRMOQ

donli o'simliklarga kiradi asosan
sumalak pishirish uchun uyda
bug'doy undiriladi.

DASTYOR yordamchi,
ko'makchi.



GULDON gul solishga
mo'ljallangan idish.

GULDASTA chiroyli
gullardan yig'ilgan
gullar to'plami.



HASHAROT yer yuzidagi
suyaksiz kichik jonzorlar.

ISSIQLIK quyosh issiqligi,
elektr pech issiqligi,
olov issiqligi.





NINACHI hasharot bo‘lib,
asosan kunlar isigandan
keyin chiqadi.

SUMALAK milliy taom
bo‘lib, asosan bahor faslida
va “Navro‘z” bayramida
tayyorlanadi.



SO‘RI katta taxta karavot.

YORUG‘LIK quyosh
yorug‘ligi, elektr,
chiroq oydinligi.



XALQ UDUMLARI har bir
millatning ajdodlaridan
avlodlariga o‘tib kelayotgan
milliy urf-odatlar, marosimlari,
bayramlari, xalq o‘yinlari.

O‘CHOQ ustiga qozon
o‘rnatib taom tayyorlanadigan
atroflari yopiq qurilma.



YER SAYYORASI – UMUMIY UYIMIZ




ARXEOLOGLAR yerosti qazilma boyliklarini izlovchi kasb egalari.

DURADGOR taxtaga sayqal beruvchi kasb egasi.



GULZOR gullar ekilgan joy.

KOSMONAVT koinotga
chiquvchi, koinot sirlarini
o'rganuvchi kasb egasi.



KOINOT osmon
va undagi jismlar.

KONUS geometrik shakl.





LUPA kichik jihozlarni kattalashtirib ko'rsatadigan oyna.

PARVOZ raketa, samolyot, vertalyot va havo kemasida uchish.



QAYG'U qadrli insonini, narsasini yo'qotishi bilan keladigan his.

TELESKOP osmon jismlarini ko‘rish uchun mo‘ljallangan astronomik asbob.



VULQON yerustidagi yoriqlar, kanallar orqali lava, issiq gaz, suv bug‘lari va jins bo‘laklarini chiqarib turadigan geologik tuzilma.

URUG‘ o‘simlik undirish uchun ishlatiladi.





YEROSTI BOYLIKLARI
yerostida yashirinib yotgan neft,
oltin, kumush, gaz va boshqalar.

YERUSTI BOYLIKLARI
okeanlar, daryolar, o‘rmonlar,
ekinlar va boshqalar.



YALPIZ bahorda o‘sadigan
xushbo‘y o‘simlik.

ASBOB VA USKUNALAR

BO'YOQ rasm chizish uchun ishlatiladi.



DASTURXON asosan O'rta Osiyo xalqlarida ovqatlanish uchun yoyiladigan to'shama.

FARTUK ish kiyimi.





HUNARMAND hunar egasi
bo‘lib, uyida yoki o‘z
do‘konida biror mahsulot
ishlab chiqarish bilan
shug‘ullanuvchi usta.

KO‘ZGU o‘z aksini
ko‘rsatuvchi oyna.



MAISHIY TEXNIKA uy
yumushlarida ishlatiladigan
texnik vositalar.

MILLIY har bir millatning o'ziga xos sifatleri; o'yinlari, bayramlari, urf-odat va boshqalar.



MUZQAYMOQ sut, qaymoq va shakardan tayyorlanadigan mahsulot bo'lib, ayniqsa yozda sevib iste'mol qilinadi.

MUZLATGICH oziq-ovqat mahsulotlarini sifati buzilmasligi uchun ishlatiladigan maishiy texnika.





TAROZI og'irlik
o'lchovchi asbob.



TERMOMETR haroratni
o'lchovchi asbob.



YOTOQQXONA uxlash uchun
mo'ljallangan xona.

YOZGI SOG'LOMLASHTIRISH DAVRI

AJDOD - AVLOD oilaning kechagi va bugungi vakillari.



ANDOZA biror bir narsadan nusxa olish.


BEZAK chiroy berish uchun ishlatiladi.





BELKURAK yer ag‘darish
uchun ishlatiladigan
mehnat quroli.

DORIVOR O‘SIMLIKLAR
shifobaxsh xususiyatlarga ega
bo‘lgan o‘simliklar.




ERTAK yaxshilikka
yetaklovchi to‘qima hikoya.

HAKANDOZ chiqindi
olishga mo'ljallangan
mehnat quroli.



HOVUZ kichik sun'iy
suv to'plash joyi.

KON yerosti boyliklari.





KUNGABOQAR oftobga qarab
o'sadigan o'simlik bo'lib, undan
pista va yog' olinadi.

MALHAM shifobaxsh
o'simliklardan tayyorlanadigan,
sirtga qo'llanadigan dori shakli.



MINORA baland qilib
qurilgan bino, asosan
teleminoralar kiradi.

NOVDA daraxtning
kichik shoxlari.



OSHPAZ ovqat
pishiruvchi, pazanda.

SAVATCHA daraxt novdasidan
to'qiladigan uy-ro'zg'or buyumi.





TANDIR non yopishga
mo'ljallangan hunarmadchilik
buyumi.

XASKASH xazonlarni, quruq
o'tlarni yig'ishga mo'ljallangan
mehnat quroli.



YOZ

YOZ fasllardan biri.

